



TURIZM SOHASI MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Astanakulov Olim Tashtemirovich,

DSc, prof., O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

"Islom iqtisodiyoti va moliyasi" kafedrasi mudiri

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: astanakulov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-0536-1214

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi,

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, magistrant

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: zaynudinovamuslimakhon@gmail.com

ORCID: 0009-0003-6868-1770

TOURISM AS AN IMPORTANT FACTOR OF THE DEVELOPMENT OF THE DOMESTIC ECONOMY

Olim Astanakulov,

DSc., Professor, International Islamic Academy of Uzbekistan

Head of "Islamic Economics and Finance" Department

Tashkent, Uzbekistan. Email: astanakulov@gmail.com

ORCID: 0000-0002-0536-1214

Sokhibova Muslimakhon,

Master student, International Islamic Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan., E-mail: zaynudinovamuslimakhon@gmail.com

ORCID: 0009-0003-6868-1770

JEL Classification: L8, L83

Annotatsiya. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng daromadli iqtisodiy faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sektor nafaqat mamlakat milliy iqtisodiyoti, balki ayrim mintaqalarning iqtisodiyotida ham salmoqli o'rinn egallaydi. Ma'lumki, 2020-yilda avj olgan global pandemiya davrida xizmatlar sohasi, xususan turizm eng katta talofot ko'rdi va bu davrda turistik xizmatlarga bo'lgan talab keskin tushdi. Shunday bo'lishiga qaramay, turizmga bo'lgan ehtiyoj, mamlakatlarning turizm sektorini rivojlantirishga bo'lgan e'tibori pasaymadi. O'zbekistondagi resurs salohiyati turistik infratuzilmani yetarli darajada rivojlantirish orqali chet ellik sayohatchilarining tashrifini bir necha barobar oshirish imkoniyati mavjud. Turizm iqtisodiyotning transport va

kommunikatsiyalar, qurilish, qishloq xo'jaligi, aholi iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va boshqalar kabi muhim tarmoqlar taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos katalizatori vazifasini bajaradi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada turizmni rivojlantirish mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri o'rjanildi hamda shu sohadagi tendensiyalar tahlil qilindi.

Abstract. Today, tourism is considered one of the main types of economic activity that brings income to the world economy. This sector not only plays a significant role in the domestic economy of the country but also

occupies a prominent place in the economies of certain regions. In 2020, during the pandemic, the services sector, especially tourism, suffered the greatest losses, as demand for tourist services sharply decreased during this period. However, despite this, attention to the development of the tourism sector did not diminish. It is possible to increase the influx of foreign tourists by developing the tourist infrastructure of our country to a sufficient level. Tourism has a significant impact on important sectors such as transport and communications, construction, agriculture, and the production of consumer goods, serving as a unique catalyst for socio-economic development. Today, in Uzbekistan, state policy pays special attention to the development of tourism. This article discusses the impact of developing tourism on the economic development of our country and analyzes trends in this field.

Kalit so‘zlar: turizm, turistik xizmatlar, turizm statistikasi, milliy iqtisodiyot.

Keywords: tourism, tourism services, tourism statistics, domestic economy.

Kirish. Turizm dunyo iqtisodiyoti va jahon xo‘jaligi aloqalarining muhim sohalaridan bo‘lib, aholining ish faoliyatini xordiq olish orqali ma’naviy tiklanishiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirib aholi turmush farovonligining sifat jihatdan oshishiga xizmat ko‘rsatadi. Turizmnинг e’tiborli jihatlaridan biri shuki, mazkur soha hech qanday tabiiy resurslarning kamayib ketishiga olib kelmay, balki milliy iqtisodiyotning taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

Jahon turistik tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda turizm industriyasi hissasiga jahon YAIMning 10,3%, jahon eksportining 7%, xizmatlar eksportining 27,4%, kapital qo‘yilmalarining 9%, iste’mol xarajatlarining 11%, soliq tushumlarining 5%dan ziyodi to‘g‘ri kelgan, turizm sektori

aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pandemiyagacha bo‘lgan davrda iqtisodiyotda band bo‘lgan har 11 kishining bittasi shu sohada faoliyat ko‘rsatgan[13]. Dunyodagi 195 mamlakatdan 150 dan ortig‘ida turizm sektori mavjud. Koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan inqiroz esa, eng avvalo, xizmatlar sohasi, xususan turizm sektoriga o‘zining katta talofotlarini yetkazdi. Juhon turistik tashkilotining ta’kidlashicha, turizm – COVID-19 pandemiyasi natijasida eng katta zarar ko‘rgan sektorga aylandi. Turizm iqtisodiy faoliyatning yuqori daromad keltiruvchi yo‘nalishi hisoblanadi, ko‘plab mamlakat va mintaqalar (masalan, Ispaniya, Fransiya, Italiya va boshqa ko‘plab mamlakatlar)da ijtimoiy-iqtisodiy o’sishning katalizatori vazifasini bajaradi.

Jahon eksportida turistik xizmatlar, yoqilg‘i, kimyo sanoati, oziq-ovqat va avtomobil sanoati eksportidan keyin beshinch o‘rinni egallaganligi, uning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishidan dalolat beradi. Xorijiy davlatlar, turistik xizmatlar eksporti hajmini muntazam oshirish uchun milliy turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishga e’tibor beradi. O‘zbekistonda kirish turizmi bilan shug‘ullanuvchi biznes subyektlari faoliyatini modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalar asosida turistik xizmatlarni takomillashtirish va uning eksportini diversifikatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda turizm sektorini barcha mintaqalarda rivojlantirish maqsadida “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘sishcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli qarori qabul qilinganligi ham mamlakatimizda bu sohaga e’tibor qaratilayotganligi hamda turli turizmni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarning

ishlab chiqilayotganligidan darak beradi.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi amalga oshirilgach, sayohat madaniyati o‘zgara boshladi. Ichki turistik tashriflar 2016-yildagi 8,8 milliondan 2021-yilda 15 milliongacha o‘sdi. So‘nggi besh yil ichida jami 833 ta mehmonxona foydalanishga topshirildi. 2022-yil yakuni holatiga ko‘ra, mamlakatimizda jami 33,4 ming xonali 1442 turistik turar joy mayjud bo‘lib, ulardag‘i umumiy o‘rinlar soni 71,2 mingtaga yetdi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha Andijon, Urganch, Toshkent shaharlarida madaniyat va istirohat bog‘larini barpo etish, “Angren-Pop” temir yo‘l liniyasi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlarning elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyalari yo‘lga qo‘yish kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatga chet ellik turistlar oqimi oshishiga sabab bo‘ldi.

2022-yil 24-avgustda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turizm markazining ochilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Turizm sohasidagi aloqalarni kengaytirish – ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi”[14], degan fikrlarini ta’kidlash zarur. Jahan ko‘lamida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borayotganligi va xalqaro turistik xizmatlar ko‘pgina davlatlar iqtisodiyotining muhim daromad manbaiga aylanib borayotganligi mazkur sohani yanada tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metod. Turizm sohasini yanada rivojlantirishning turli nazariy va amaliy jihatlari xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar, amaliyotchi ekspertlar ilmiy ishlari hamda hisobot ma’ruzalarida muhim tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan.

Jumladan, xorijlik olim A.Menyaylov “Turizm iqtisodiy integratsiya va globalizatsiya omili sifatida” maqolasida turizmning kiruvchi mamlakat uchun ahamiyati, foya va zararlarini ochib

bergan[7]. A.Barlibayev, V.Axmetov “Turizmning qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishdagi o‘rni” maqolasida turistik faoliyatning turli iqtisodiy sektorlarning jadal rivojlanishi, xususan, qishloq xo‘jaligining diversifikatsiyasidagi ahamiyatiga urg‘u berilgan[5]. O.Kazanseva “Turizm milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishining omili sifatida” nomli maqolasida mamlakatlarning turizmni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishlarini izohlash bilan bir qatorda, sektor rivojlanishi mamlakatning iqtisodiyoti o‘sishiga olib kelishini isbotlagan [6].

G.Arslanovaning fikriga ko‘ra: “Turizm mahalliy infrastrukturani rivojlantirish, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar sektorining o‘sishiga turtki bo‘lishi mumkin”[3]. Y.Ksyao turizmni sayohatchining notijorat va kasbga bog‘liq bo‘limgan vaqtinchalik va ixtiyoriy, doimiy yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq munosabatlar va xizmatlar to‘plami sifatida ta’riflaydi[12].

G.M.Shadiyeva, N.B.Shanazarova va S.M.Arslanbekovlar esa, turizm tushunchasini alohida bir mamlakat milliy iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyotning butun jahon xo‘jaligi bilan aloqalari doirasida alohida elementlar o‘rtasidagi turli bog‘liqliklarga ega bo‘lgan yirik iqtisodiy tizim sifatida shakllantiradi[11].

So‘nggi yillarda chop etilgan mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ham diqqatga molik. Z.I.Usmonova tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda turistik rekreatsion xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan[8]. J.N.Abiyev milliy iqtisodiyotda turizm tarmog‘ini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etgan[2].

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi yillarda turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari va jozibador muhitni shakllantirish masalalari iqtisodchi olimlar o‘rtasida qisman bayon etilgan. Bizningcha,



hozirgi vaqtida xalqaro turistik xizmatlarning rivojlanish dinamikasi tahlilini olib borib, sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati samaradorligiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiylash tahlil, statistik guruqlash kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o'ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir

tadqiqotlar o'r ganib chiqildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi.

Natijalar. Mamlakat iqtisodiyotida turizmning o'rni va rolini uning YAIM tarkibidagi ulushiga qarab ham baholash mumkin. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekistonda turizm faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari hamda sohaning mamlakat YAIMdagi ulushi taxlili keltirib o'tilgan.

1-jadval

O'zbekistonda turizm faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari hamda sohaning mamlakat YAIMdagi ulushi

No	Ko'rsatkichlar	O'chov birligi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	Xorijiy turistlar	mln.nafar	2,03	2,69	5,35	6,75	1,5	1,88	5,2
2	Eksport	mln.AQSH dollari	430,7	531	1041,1	1313	260,9	422,1	1600,0
3	Ichki turistlar	mln.nafar	8,9	10,6	12,5	14,7	3,5	15	11,435
4	Chiqish turizmi	mln.nafar	3,8	5,2	8,6	8,4	2	2,2	5,16
5	Mehmonxona nomer fondining bandlik darajasi	foiz	—	39,3	53,2	53,1	22,1	36,3	40,1
6	Turizm sohasida band bo'lganlar	ming nafar	170,9	187,6	201	260,1	201,3	210	260,1
7	YAIMda turizmnинг ulushi	foiz	2,1	2,5	2,5	2,6	2,3	2,3	2,022
8	YAIM	mlrd. so'm	255 421,90	317 476,40	426 641,00	532 712,50	605 514,90	738 425,20	888 341,7

1-jadvalga ko'ra, 2016-yilda mamlakatda turizm faoliyatining mamlakat YAIMdagi ulushi 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-2019-yillarda mazkur ko'rsatkich 2,5-2,6 foiz oraliq'ida bo'lgan. Biroq, pandemiya ushbu ko'rsatkichning pasayishiga sabab bo'ldi. Mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar oqimi 2016-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davr mobaynida yildan-yilga o'sib bordi, xususan, 2016-yilda O'zbekistonga xorijdan tashrif buyurgan turistlar soni 2,03 mln.ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 6,75 mlngga, 2016-yilga nisbatan qariyb 3,3 barobarga o'sishni qayd etgan. 2020-yilda mamlakatga jami 1,5 mln sayyoh tashrif buyurdi, bu undan oldingi


yilga nisbatan 4,5 barobar pasayish demakdir. 2021 yilda dunyodagi cheklov larning kamayishi natijasida 1,88 mln kishi O'zbekistonga sayohatni amalga oshirdi. 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 5,2 mln.ga yetdi va 2021-yilga nisbatan 2,7 barobar o'sish kuzatildi. Jadvaldagagi ichki turistlar sonini taxlil qiladigan bo'lsak, 2016-yilda 8,9 mln., 2017-yilda 10,6 mln., 2018 yilda 12,5 mln., 2019-yilga kelib esa 14,7 mln.ni tashkil etgan. 2019-yildagi ichki turistlar soni 2016-yilnikiga nisbatan o'sishi 65% ni tashkil etgan.

Ushbu davr mobaynida turizm sohasida band bo'lganlarning sonida ham ijobjiy tendensiya kuzatilgan. 2016-yilda turizm sektorida band ishchilar soni 170,9 ming

kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 260,1 ming kishiga yetdi. 2020-yilda ushbu sektorda band bo'lganlarning soni qariyb 23% ga kamaydi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri bu mamlakat hududlarida turizmni samarali rivojlantirish bilan bevosita bog'liq [1, 4]. Ushbu nazariyaning isboti o'laroq, statistik ma'lumotlar to'plandi va statistik tahlil olib borildi. Natijada turizmning milliy iqtisodiytiga ijobiy ta'sirini baholovchi model ishlab chiqildi.

Statistik tahlil bosqichida turizmning




1-rasm. 2010-2022-yillar kesimida YAIMning o'zgarish grafigi

Rasmlardan ko'rilib turibdiki, o'zgaruvchilar (YAIM va turistlar soni) 2010-2022-yillar kesimida o'zgarib borgan. Bu esa ushbu ko'rsatkichlarning statsionar emasligidan dalolat beradi va modelga kiritilmasligi uchun asos bo'ladi. Biroq, ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida tahlil qilish ularning vaqtga bog'liq emasligi, boshqacha aytganda statsionar ekanligini ma'lum qiladi.

Biz mazkur tadqiqotda xorijiy sayyohlar sonining YAIMga ta'sirini tahlil qilamiz. Taxminimizcha, turistlar soni ma'lum vaqt davomida YAIMga ta'sir o'tkazadi. Ushbu farazni isbotlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan statistik

mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri modelining o'zgaruvchilari bilan bog'liq statistik ma'lumotlarning tahlili o'tkazildi. Bunda regressiya koeffitsiyentlarini baholash uchun ekonometrik usullardan foydalanildi. Dastlabki ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan 2010-2022-yillar uchun e'lon qilingan statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Modelda joriy narx (so'm)da yalpi ichki mahsulot va mintaqaga tashrif buyurgan turistlar soni bo'yicha ma'lumotlar hisobga olindi.



2-rasm. 2010-2022-yillar kesimida turistlar sonining o'zgarish grafigi

ma'lumotlardan foydalanamiz. Bu turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri haqida chuqurroq tahlil qilish va xulosalar berish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot obyekti modellashtirish uchun ekonometrik metodologiyadan foydalanildi. Belgilangan gipoteza stokastik tenglama shaklida taqdim etildi va biz kirish o'zgaruvchilar bo'yicha ilk taxminlarimizni aniqlashtirib oldik [9]. Modelni ishlab chiqishda o'zgaruvchilarning logarifmlash vaqt o'tishi bilan asosiy o'zgaruvchining foiz o'zgarishidan tobe o'zgaruvchining foiz o'zgarishini aniqlab berishini hisobga oldik.

Tadqiqotda o'zgaruvchilarni logarifmlash orqali modelni ishlab chiqdik.

Gipotezalarimizga muvofiq, regressiya tenlamasi quyidagicha ko‘rinishga ega:
 $\log YAIM = \log f(Turizm)$

Bog‘liqlikni aniqroq qilib quyidagi logarifmik shaklda ifodalash mumkin:

$$\log YAIM = \alpha + \beta * \log (Turizm)$$

Bu yerda, $YAIM - "t"$ vaqt
 oraliq‘idagi $YAIM$ hajmi;
 $Turizm - respublika aholisining "t"$
 vaqt oraliq‘tdagi bandlik darajasi;
 $\alpha -$ mezon koeffitsiyenti;
 $\beta -$ doimiy (konstanta).

Statsionarlik uchun asosiy va tobe o‘zgaruvchilarni Kwiatkowski-Phillips-Schmidt-Shin (KPSS unite root test) testi yordamida I (0) daraja uchun sinab ko‘rdik. Ekonometrik model koeffitsiyentlari eng kichik kvadratlar metodi (KKM) orqali aniqlandi.

KPSS testidan foydalaniib, asosiy va tobe o‘zgaruvchilarning statsionarligini I (0) darajasida sinab ko‘rdik. Model koeffitsiyentlari KKM usuli orqali aniqlab olindi. Sinov natijalari o‘zgaruvchilar statistik baholari barcha muhimlik darajasida (1%, 5%,

10%) kritik qiymatlardan kamroq ekanligi sababli ularning statsionarligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘zgaruvchilar modelda foydalanishi mumkinligidan dalolat beradi.

Regressiya modeli «Eviews 9» dasturiy paketi yordamida baholandi. 4-jadvalda model parametrlari va model tahlilining boshqa mezonlari keltirilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, koeffitsiyentning qiymatlari va aniqlash koeffitsiyenti $R^2 = 0.857227$ va 1.337763 proqnoz qilingan qiymatlardan kamroq, bu esa ularning ishonchlilagini tasdiqlaydi. Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.86$ qiymati bog‘liq o‘zgaruvchidagi o‘zgarishlarning 86% asosiy o‘zgaruvchi bilan izohlanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, F statistik ehtimollik qiymati 5% (0,0) dan kam bo‘lib, bu turistlar soni va $YAIM$ dagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Shunday qilib, $YAIM$ 86% ga turistlar soni bilan bog‘liq. 0.857227 determinatsiyaning aniqlangan koeffitsiyenti tobe o‘zgaruvchilarning to‘g‘riligi ko‘rsatadi va kichik qiymatga qaramay $R^2 = 86\%$ aniqlangan koeffitsiyentga juda yaqin.

2-jadval

Log $YAIM$ o‘zgaruvchining statsionarligini tekshirish

Null Hypothesis: $YAIM_ML$ is stationary
 Exogenous: Constant
 Bandwidth: 2 (Newey-West automatic) using Bartlett kernel

LM-Stat.		
Kwiatkowski-Phillips-Schmidt-Shin test		
statistic		0.461366
Asymptotic critical values*:	1% level	0.739000
	5% level	0.463000
	10% level	0.347000

3-jadval

Log $Turizm$ o‘zgaruvchining statsionarligini tekshirish

Null Hypothesis: KIR_TURIZM is stationary
 Exogenous: Constant
 Bandwidth: 1 (Newey-West automatic) using Bartlett kernel

LM-Stat.		
Kwiatkowski-Phillips-Schmidt-Shin test		
statistic		0.377149
Asymptotic critical values*:	1% level	0.739000
	5% level	0.463000
	10% level	0.347000


Manba: «Eviews 9» dasturiy paketi yordamida hisoblash natijalari.

Ressessiv analiz natijalari

R-squared	0.857227	Mean dependent var	12.35716
Adjusted R-squared	0.841363	S.D. dependent var	0.732699
S.E. of regression	0.291829	Akaike info criterion	0.537665
Sum squared resid	0.766475	Schwarz criterion	0.610010
Log likelihood	-0.957158	Hannan-Quinn criter.	0.492062
F-statistic	54.03705	Durbin-Watson stat	1.337763
Prob(F-statistic)	0.000043		

Mulohaza. Ekonometrik tadqiqotlarning muhim shartlaridan biri qoldiqlarni meyoriy taqsimlash hisoblanadi. Jak-Berra koeffitsiyenti, qoldiqlar

istogrammasi va qoldiqlar normativligini tekshirish bunday taqsimotga misol bo'la oladi.



Series: Residuals	
Sample 2010 2022	
Observations 11	
Mean	6.26e-16
Median	-0.051377
Maximum	0.491521
Minimum	-0.315706
Std. Dev.	0.276853
Skewness	0.365569
Kurtosis	1.825531
Jarque-Bera	0.877222
Probability	0.644931

3-rasm. Qoldiqlarning normalligini tekshirish.

3-rasmdan ko'riniib turibdiki, qoldiqlarning taqsimlanishi yetarlicha normal. R bahosining qiymati (0,644931) 5% dan ortiq, shu jumladan, Jak-Berra koeffitsiyenti (0,877222) qoldiqlarning normal taqsimlanishi sharti buzilmaganligini ko'rsatadi.

Ekonometrik tahlil o'tkazishning yana bir muhim sharti heteroskedastlikni tekshirish hisoblanadi. Bunda asosan ARCH-testning natijalari inobatga olinadi. «Eviyews 9» dasturiy paketidan foydalangan holda olingan natijalarga ko'ra, chi-kvadrat koeffitsiyenti 5%

dan ortiqligi kelib chiqdi[10]. Bu esa heteroskedastik test natijalari maqbullikdan dalolat beradi.

Model shaklini to'g'ri tanlash testi ekonometrik testlarning yana bir turi hisoblanadi. Bunda asosiy e'tiborni Ramsey-Rezet testiga qaratish lozim. Mazkur test natijalari 5% dan yuqoriligi model qurish shakli to'g'ri tanlanganligini ko'rsatib beradi.

Bounds kointegratsion testi natijalariga ko'ra, tenglama uchun hisoblangan «F» statistik qiymatining 5% ahamiyatlilik darajasi

kritik nuqtalardan yuqori. Bu 5% ahamiyatlilik darajasida nol gipoteza bilan kointegratsiya yo‘qligini ko‘rsatadi.

Tenglamalar qoldiqlarining avtokorrelyatsiyasining mavjudligi yoki yo‘qligi Breusch- Godfrey LM testi yordamida sinovdan o‘tkazildi.

Model qoldiqlarining avtokorrelyatsiyasini tekshirish natijalariga ko‘ra, «N0» gipotezasi tenglama qoldiqlari o‘rtasida avtokorrelyatsiyaning yo‘qligini aks ettiradi va «N1» gipotezasi qoldiqlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning avtokorrelyatsiyasi mavjudligini aks ettiradi.

5% dan yuqori bo‘lgan «R» narxi «N0» gipotezasi to‘g‘riliqi, ya’ni qoldiqlar o‘rtasida avtokorrelyatsiya munosabatlarining yo‘qligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Endilikda $\log YaIM = \alpha + \beta * \log (Turizm)$ tenglamadan olingan natijalardan kelib chiqib yakuniy xulosalar qilish mumkin. KKM yordamida baholash natijalari asosida, umumiy tenglamani quyidagicha aks ettirish mumkin:

$$\log YaIM = 1,12 \log Turizm + 3,61$$

«Eviews 9» dasturiy majmuasi natijalariga ko‘ra, respublikaga kelayotgan turistlar sonining statistik bahosi «T» “Tkritik” bahosidan yuqori va mos ravishda «R» narxi 0,05 dan kam. Bu esa modelni qabul qilishga asos bo‘ladi. Ishlab chiqilgan modelga ko‘ra, turistlar sonining 1 foizga o‘sishi yalpi ichki mahsulotning 12 foiz o‘sishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, respublikaga kelayotgan sayyoohlар sonining ko‘payishi iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, turizmning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri xorijiy va mahalliy sayyoohlар hisobiga samarali talabning ortishi natijasida tadbirkorlik faoliyatini oshirish, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat. Iqtisodiy nuqtai nazardan turizmning xizmatlar ko‘rsatuvchi soha sifatida jozibadorligi investitsiyalarning tezroq qaytarilishi va erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada daromad olishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Astanakulov O., G‘oyipnazarov S. “Turizm 4.0”: “Sanoat 4.0” texnologiyalarini turizm sohasida qo‘llash imkoniyatlari: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a51 //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – С. 330-337.
2. Abiyev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog‘ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2019 y. – 11-14 b.
3. Арсланова Г.Х. Роль индустрии туризма в экономике региона //Российское предпринимательство. – 2016. – Т. 17. – №. 8. – С. 1061-1070.
4. Astanakulov O., Soxibova M. Jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida xalqaro mehmonxonalar tizimining rivojlanishi //Obshchestvo i innovatsii. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 49-56.
5. Барлыбаев А.А., Ахметов В.Я., Насыров Г.М. Туризм как фактор диверсификации сельской экономики //Проблемы прогнозирования. – 2009. – №. 6. – С. 105-111..
6. Казанцева О.И. Туризм ка фактор устойчивого развития национальной экономики //Географія та туризм. – 2010. – №. 4. – С. 17-22.
7. Меняйлов А.А. Туризм как фактор экономической интеграции и



глобализации //Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития. – 2016. – С. 79-81.

8. Usmanova Z.I. O‘zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2018 y. – 17-19 b.

9. Huseynli N. Econometric analysis of the relationship between tourism revenues, inflation and economic growth: The case of morocco and South Africa //African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure. – 2022. – Т. 11. – №. 1. – С. 135-146.

10. Rahman M. H. et al. Economic growth, energy mix, and tourism-induced EKC hypothesis: evidence from top ten tourist destinations //Sustainability. – 2022. – Т. 14. – №. 24. – С. 16328.

11. Shadieva G.M., Baratovna S.N., Muminovich A.S. Theoretical Foundations of National Tourism and Competitiveness //Specialusis Ugdymas. – 2022. – Т. 2. – №. 43. – С. 3166-3177.

12. Xiao Y. et al. Assessment of coordinated development between tourism development and resource environment carrying capacity: A case study of Yangtze River economic Belt in China //Ecological Indicators. – 2022. – Т. 141. – С. 109125.

13. <https://www.unwto.org>

14. <https://yuz.uz/news/yangi-samarqand-voqelikka-aylangan-orzu>